

Guliston davlat pedagogika instituti,
“Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik”
kafedrasi dotsenti, (PhD) Saidkulov
Nuriddin Akramkulovich taqrizi ostida

Erkinboyeva Sabohat Elmurodovna
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Telefon raqami: +998 99 090 43 80
E-mail : erkinboyevasabohat@gmail.com

XOTIN-QIZLARGA QILINAYOTGAN TAJOVUZLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiyaa: Ushbu maqolada siz dunyoda xotin-qizlarga qilinayotgan tajovuzlarni oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xotin-qizlarning haq-huquqlari, ularga nafaqat yurtimizda balki butun dunyo bo'ylab berilayotgan imkoniyatlar haqida bilishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, zo'ravonlik, ayollar huquqlari, erkinlik, voyaga yetmaganlarga qilinayotgan tajovuzlar.

WAYS TO ELIMINATE VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abstract: In this article, you can learn about the measures taken to prevent violence against women, the rights of women, and the opportunities given to them not only in our country, but all over the world.

Key words: Gender equality, violence, women's rights, freedom, assaults on minors.

Hayotimizning bugungi kunida tenglik tushunchasi so'z lug'atimizning asosiy o'rinni yanada mustahkamlanmoqda. Jumladan, tenglik va kamsitilmaslik. 1945-yilda qabul qilingan BMT Nizomining asosiy tamoyillaridandir. Ayollar huquqlari – inson huquqlari bo'lganligi sababli, ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Zero, gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, jinsiy kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalarida taqiqlangan. 1979-yil 12-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan “xotin- qizlarni kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya”ni qabul qilgan davatlarga madaniyat, jamiyat, ta'lif, siyosat va qonunchilik sohalarida ayollarning kamsitilishini bartaraf etish majburiyagini yuklaydi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1955-yil 6-mayda BMTning ushbu konvensiyasiga qo'shildi va onalikni himoya qilish, mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi.

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa ko'rilib qilayotgan chora-tadbirlar sababli ular bugungi kunda ta'lif, fan, tadbirkorlik, ijtimoiy-siyosiy sohalarda o'z bilim va salohiyatlarini namoyan etmoqda. Binobarin, 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum natijasida qabul qilingan, yangi Konstitutsiyamizning 42-moddasi 3-bandida “Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish yo ularning ish haqqini kamaytirish taqiqlanadi” – deya keltirilib o'tilgan. Shuningdek, 58-moddada “Xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini taminlaydi” – deb qayd etilgani beziz emas. Hozirgi kunda mamlakatimiz va xalqaro tashkilotlar tomonidan ayollarning har tomonlama rivojlanishi va martaba pog'onasidan ko'tarilishlari uchun ko'plab sharoitlar yaratilmoqda. Mentorlik dasturlari,

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'quv kurslari va xotin-qizlar uchun IT dagi akseleratorlar bunga yaqqol misoldir.

2023-yil 6-aprelda Oliy Majilis Senat palatasining 39-yalpi majlisida xotin-qizlar hamda bolalarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga doir qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, "Bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlik masalasining bugun qanchalik dolzarb ekanini ortiqcha izohlashga hojat yo'q. Tahlillarga qaraganda, 2021-2022-yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ayollar va qizlarga nisbatan tazyiq hamda zo'rovonlik holatlari yuzasidan 72 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan. Shundan, qariyb 61 mingdan ortig'i oilada sodir etilgan zo'ravonliklar bilan bog'liq. Afsuski, shu kungacha O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik bo'yicha javobgarlikka tortuvchi alohida norma bo'lмаган. Respublikada 2020-yilda 156 ta, 2021-yilda 243 ta, nomusga tegish jinoyati sodir qilingan. Yangihayot tumanida 12 yoshli qizning zo'rланishi va o'ldirilishi, Xorazmdagi bolalar uyi, Sergeli tumanida ona 3 nafar farzandi bilan yuqori qavatdan sakrashi...

Xulosa shuki, jamiyatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan hamda voyaga yetmagan farzandlarimizga nisbatan zo'ravonlik holatlariga qarshi turadigan yanada mustahkam va qat'iy qonunlarga ehtiyoj bor" – deya ta'kidlaydi Senat raisi Tanzila Norboyeva. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy kodeksining

41-moddasining 1-bandida "shahvoniy shilqimlik qilish bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan besh barobarigacha miqdorda jarima solishga yoki besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqa olishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday, huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - ba'zaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi."

Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik bugungi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan, hal qilinmaydigan va halokatli inson huquqlari buzulishlaridan biridir. Bu jismoniy, jinsiy va psixologik shakllarda namoyan bo'ladi, shu jumladan:

- erkaklarning zo'ravonligi, (kaltaklash, psixologik zo'ravonlik, oilaviy zo'lash, qotillik);
- jinsiy tajovuz va ta'qiblar (zo'rlash, zo'ravonlik bilan jinsiy aloqada bo'lish, istalmagan oqibatlar, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik, majburiy nikoh, ko'cha bezoriligi, ta'qib qilish, kiberhujum);
- Odam savdosi;
- Bolalar nikohlari;

Davlatimiz hayotida so'nggi yillarda beqiyos darajadagi o'zgarishlar bo'immoqda. Shulardan mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga hamda aytib o'tishimiz lozimki, so'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishida ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Mehnat kodeksining 393-moddasidan muhofaza qilish bo'yocha qo'shimcha choralar belgilangan bo'lib, bunga ko'ra:

- Ish beruvchi kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ijtimoiy-

mehnat masalalari bo'yicha Respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlanadigan tavsiyalarini inobatga olib, noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar ro'yxatini belgilashga haqli;

- Ayollar tomonidan ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p normadan ortiq bo'lgan og'ir yuklarni ko'tarish va tashish ta'qiqlanadi;

- Ayollarni og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p yuklamalar, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabotlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ijtimoyi-mehnat masalalari bo'yicha Respublika uch tomonlama mehnat komissiyasi bilan kelishilgan holda belganganadi.

Bundan tashqari mehnat kodeksi 400-moddasi 2-qismiga ko'ra, "homilador ayollarni yillik mehnat ta'tilidan chiqarib olishga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilangan. Mehnat kodeksining 408-moddasiga ko'ra, homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra, bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, bundan tashkilot (Uning alohida bo'linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdag'i tadbirdorning ish faoliyati tugatilgan holar mustasno.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1 . O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2 . <https://gendermadad.uz/oz>
- 3 . Insonhuquqlari.uz
- 4 . <https://lex.uz/acts/-97664>
- 5 . Inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik
- 6 . <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
- 7 . Akbarjonovich, Mansurov Abdulaziz. "An analytical approach to the elimination of corruption." finland international scientific journal of education, social science & humanities 11.4 (2023): 2045-2047.
- 8 . Akbarjonovich M. A. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 24. – №. 2. – с. 32-34.
- 9 . Akbarjonovich M. A. Migratsiya jarayonining tahlili va muammoli jihatlari //iqro. – 2023. – т. 2. – №. 1. – с. 628-631.
- 10 Mansurov A. Development stages of migration from a historical point of view //news of uzmu journal. – 2024. – т. 1. – №. 1.1. 1. – с. 108-111.
- 11 Сайдкулов Нуриддин Акрамкулович.,. (2023). ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference*, 48–53.
- 12 Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.